

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR  
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

**ACHILOV G‘OFURJON QURBONBOY O‘G‘LI**

**TERI XOMASHYOSIGA MEXANIK ISHLOV BERUVCHI KO‘P  
OPERATSIYALI MASHINANING BOSIM BERUVCHI MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar,  
mexatronika va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Achilov G'ofurjon Qurbonboy o'g'li**

Teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning bosim beruvchi mexanizmini takomillashtirish..... 3

**Ачиллов Гафуржон Курбонбой угли**

Совершенствование механизма давления многооперационной машины для механической обработке кожевенного полуфабриката..... 23

**Achilov Gofurjon**

Improvement of pressure mechanism of multi-operation machine for mechanical processing of leather products.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....47

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR  
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

**ACHILOV G‘OFURJON QURBONBOY O‘G‘LI**

**TERI XOMASHYOSIGA MEXANIK ISHLOV BERUVCHI KO‘P  
OPERATSIYALI MASHINANING BOSIM BERUVCHI MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va  
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.2.PhD/T2654 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ttysi.uz](http://www.ttysi.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Baxadirov G'ayrat Ataxanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mirzayev Nodir Baxodirovich**  
texnika fanlari doktori, professor  
**Ibragimov Farxod Xayrulloevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 19 yanvar soat 10<sup>00</sup> daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5.tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (262-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 5 yanvar kuni tarqatildi  
(2026-yil 5 yanvardagi 262 -raqamli reysr bayonnomasi).



**X.H.Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor



**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor



**Sh.Sh.Xakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusini dolzarbli va zarurati.** Jahonda charm va charm mahsulotlariga talab yildan yilga o'sib bormoqda. Charm mahsulotlarini ishlab chiqarishda Xitoy (717 mln. m<sup>2</sup>), AQSH (511 mln. m<sup>2</sup>), Braziliya (665,2 mln. m<sup>2</sup>), Italiya (317,7 mln. m<sup>2</sup>), Turkiya (221,3 mln. m<sup>2</sup>) Rossiya (66 mln. m<sup>2</sup>), Hindiston (175,9 mln. m<sup>2</sup>), Janubiy Koreya (78,1 mln. m<sup>2</sup>) Qozog'iston (48 mln. m<sup>2</sup>), O'zbekiston (40,2 mln. m<sup>2</sup>) kabi mamlakatlar yetakchi davlatlar hisoblanadi. Bugungi kunda ishlab chiqarishning barcha sohalarida bo'lgani kabi, charm sanoatida ham mashinalar va mexanizmlarning samaradorligini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida mashinasozlik tarmog'i umumiy sanoat ishlab chiqarishining 35 % ini tashkil etishini inobatga olsak<sup>1</sup>, ushbu sohada texnologik jarayonlarni uzluksiz va samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda teri xomashyo mahsulotlarining ortiqcha namligini siqib chiqarishda resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, teri xomashyo mahsulotlariga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali valli mashinalarning kinematik, dinamik va texnologik ko'rsatkichlarini asoslashga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, teri xomashyo mahsulotlarining namligini siqib chiqarishda, yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejash, teri xom ashyo mahsulotlarga dastlabki mexanik ishlov berishda teri xom ashyo mahsulotning ortiqcha namligini siqib chiqaradigan, tekislaydigan, yo'nadigan va jilvirlaydigan energiya-resurstejamkor texnologik valli mashinani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari asoslashga alohida e'tibor berilmoqda

Respublikamizda teri xomashyo mahsulotlariga mexanik ishlov berishda, ish unumdorligini oshirib beruvchi, mehnat hamda energiya sarfini kamaytiruvchi va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi valli texnologik mashinalarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, "...charm mahsulotidan poyabzal va charm-attorlik tayyor mahsulotlari, shuningdek, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish..."<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning hozirgi kundagi muhim masalalaridan biri, tayyorlanadigan charm mahsulotlari uchun ko'n yarim mahsulotiga sifatli ishlov berish bilan birga, turli texnologik mashinalarning ish unumdorligini, mahsulot sifatini oshirish, ishchi vallar va mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi

<sup>1</sup> <https://app.indexbox.io/table/41h99/0/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

to'g'risida"gi Farmonida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentabrdagi 531-sonli "Charm-poyabzal va mo'yna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi<sup>3</sup> qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya- va resurs-tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Teri xomashyo mahsulotlariga mexanik ishlov beruvchi valli mashinalar ustida dunyoning ko'plab olimlari o'z ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borishgan. Teri xomashyolariga mexanik ishlov beruvchi valli mashinalarni ishlab chiqish va tadqiq etish bilan horijda T.Witt (Germaniya), L.Olle (Ispaniya), S.Ponsubbiah (Hindiston), A.M. Kuznetsov, V.A. Kajevnikov, I.V.Darda, V.I. Belyaev, Y.N. Qorotchenqo, N.G.Vladikin, M.Y.Berseleva, Y.M.Kalashnikova, V.T.Proxorov, D.V.Reva (Rossiya), B.A.Koyaydarov (Qozog'iston) shug'ullanishgan. Teri xom ashyosining fizik-mexanik xossalarni aniqlash va ular asosida texnologik mashinalarni ishlab chiqish va mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha Y.Zhang, J.R.Kelly, Katiye H.Sizeland (Yangi Zelandiya), A.Danilkovich (Ukraina), I.Sh.Abdullin (Rossiya), M.Sh.Shardarbek (Qozog'iston) ilmiy ishlarida sanab o'tgan.

Respublikamizda ko'n yarim mahsuloti, teri va har xil tolali materiallarni qayta ishlash jarayonlari va ularda qo'llaniladigan texnologik mashinalarning parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar T.Y.Amanov, G.A.Baxadirov, A.A.Rizayev, A.D.Djurayev, N.B.Mirzayev, I.G.Shin, K.N.Anarbekov, A.Abdukarimov, G.N.Tsoy, SH.R.Xurramov, K.Xusanov, T.J.Kodirov, D.I.Shin, U.F.Nigmatova, M.Q.Rasulova, A.M.Nabiyev, Z.Raximova, M.U.Musirov, A.A.Umarov, F.R.Raximov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Bugungi kunda teri xomashyo mahsulotlarga mexanik ishlov beruvchi valli mashinalarni quyidagi firmalar ishlab chiqaradi: "Yancheng Shibiao Machinery Manufacturing", "Changzhou Fengmi Electronic Equipment Plant", "Fujian Zhongshen Synthetic Leather Co., Ltd", "Jiangyin Brenu Industry Technology" (Xitoy) "Svit" (Chexiya), "Industry machinery", "Luydgy Rizzi", "Aletti", "Mosconi & C.", "Menagetti", "FBP Automazioni", "Poletto", "SM", "Rotopress", "Bauce Tri. Ma", "Rizzi", "Flamar", "Poletto", "Mosconi & C.", (Italiya), "Deri-Maksan" (Turkiya), "Shlygeter", "Airopress", "BMD", "Moenus Turner", "Raum" (Germaniya), "Versus rs", "Sopfa" (Fransiya), "Aulson", "Stelling" (AQSh); "Turner" (Angliya); "Finvas", "Effipress" (Finlandiya) va boshqalar

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan valli texnologik mashinalar ho'l teri xomashyolarining namligini siqib chiqarishda muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsada, ammo teri

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-sentabrdagi 531-sonli "Charm-poyabzal va mo'yna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori

xomashyolariga ko'p operatsiyali valli mashinalar bilan, mexanik ishlov berish jarayonlari va resurstejamkor mashinani ishlab chiqish va ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining FA-Atex-2018-254 "Ko'n yarim mahsulotiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashina ishlab chiqish" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** teri xomashyosiga mexanik ishlov berish jarayonida mashinaning bosim beruvchi mexanizmini takomillashtirish orqali energiya sarfini kamaytirish, kam kuch bilan katta bosim kuchini hosil qilish hamda natijada siqib chiqariladigan suyuqlik miqdorini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

teri xom ashyosiga mexanik ishlov beruvchi mashinalarning mavjud konstruksiyalarini hamda ularni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarni tahlil qilish;

teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizmi konstruksiyasini ishlab chiqishga oid nazariy hisoblashlarni amalga oshirish;

takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizm qo'llanilgan ko'p operatsiyali mashinada siquvchi vallarning bosimi, uzatish tezligi, siqish takroriyliigi va teri xom ashyosi qalinligiga bog'liq holda siqib chiqarilgan suyuqlik miqdorini aniqlash bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish;

teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali texnologik valli mashinaning takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizmi uchun asosiy kinematik va dinamik parametrlarni asoslash hamda uning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

**Tadqiqotning obyekti** teri xomashyolariga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning bosim beruvchi mexanizmi.

**Tadqiqotning predmeti** teri xomashyosini siquvchi valli mashinaning bosim beruvchi mexanizmi olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik hisoblash qoidalari, nazariy mexanika qonuniyatlari, statistik tahlil qilish usullari, tajribalarni matematik rejalashtirish usullari hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ishchi va siquvchi vallarning kontakt zonasida talab etiladigan bosim kuchini xosil qilish uchun sekansoida bo'yicha ortib boruvchi kuchni ta'minlaydigan mexanizmning ko'rsatkichlari: vallar diametrlari, richaglar uzunliklari va tishli g'ildiraklarning parametrlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan;

teri xomashyosini val juftliklari orasidan o'tkazib mexanik ishlov berilganda undan siqib chiqariladigan ortiqcha suyuqlik miqdorini aniqlovchi matematik ifoda, ishchi va siquvchi vallar o'rtasidagi bosim va bosim beruvchi tortqi (richag) ning vertikal bilan hosil qilgan burchagi  $1,57 \text{ rad}$  ( $90^\circ$ ) gacha bo'lgan holatga bog'liq holda ishlab chiqilgan;

teri xom ashyo mahsulotini siqish texnologik jarayoni uchun yangi bosim beruvchi mexanizim bilan ta'minlangan ko'p operatsiyali valli mashinaning juftlikdagi vallar orasidagi masofa, ular orasidagi bosimni aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

ishchi valning kengligi 250 mm, diametri 250 mm bo'lgan bosim beruvchi mexanizmning yangi konstruksiyasi bosim beruvchi pedalning yurish masofasi va talab etiladigan bosim kuchiga bog'liq holda ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kam ishchi maydon talab etuvchi energiya tejamkor, mahsulot sifatini oshiruvchi, teri xomashyo mahsulotiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning takomillashtirilgan bosim mexanizmi konstruksiyasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan;

teri xomashyo mahsulotlarga mexanik ishlov berish texnologik valli mashina takomillashtirilgan bosim mexanizmining asosiy geometrik, kinematik, dinamik parametrlari asoslangan;

vertikal bilan hosil qilgan burchagi 1,2 rad, 1,375 rad, 1,55 rad bo'lganda bosim kuchlari 16 kN/m, 24 kN/m, 32 kN/m bo'lgan uch xildagi bosim beruvchi mexanizmning yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

nazariy yo'l bilan aniqlanib, tajriba o'tkazish yo'li orqali tasdiqlangan bosim mexanizmining maqbul parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi model takomillashtirilgan va grafiklari olinib, ishlab chiqarish korxonalariga taqdim etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** charm sanoatida qo'llaniladigan valli mashinalar uchun bosim beruvchi mexanizmini takomillashtirish bo'yicha nazariy hisoblashlar va tajriba natijalarining mosligi, baholash mezonlari hisobga olgan holda regressiya tenglamasining adekvatligi, sinovdan o'tkazish va joriy etishda ijobiy natijalar olinganligi, olib borilgan tadqiqotlar natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi, ko'p operatsiyali mashinaning bosim beruvchi mexanizmini takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqilganligi, siquvchi vallarning bosimi, uzatish tezligi, siqish takroriyliigi va teri xom ashyosi qalinligiga bog'liq holda siqib chiqarilgan suyuqlik miqdorini aniqlanganligi, teri xomashyolarga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali texnologik valli mashina takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizmining asosiy kinematik, dinamik parametrlarini asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati teri xom ashyo mahsulotini siquvchi mashina bosim beruvchi mexanizmining takomillashtirilgan konstruksiyasi yordamida teri xomashyosini siqish jarayonida uni bir xilda siqish ta'minlanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Teri xomashyo mahsulotiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning bosim beruvchi mexanizmini takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

“Teriga mexanik ishlov berish uchun mashina” ga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazining (№ IAP 06847) ixtiroga



patenti olingan. Natijada teri xomashyo mahsulotiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning takomillashtirilgan bosim mexanizmini amaliyotga joriy etilganda mahsulot sifatini yaxshiga va ishlab chiqarish maydonini kamaytirish imkonini yaratilgan;

Teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi, ko'p operatsiyali valli mashinada olingan natijalar Namangan viloyati Kosonsoy shahridagi "Gold Leather Export Import" MCHJ va Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi "Premium Leather" MCHJ korxonalarda joriy etilgan ("O'zcharmsanoat" uyushmasining 2025 yil 26 maydagi 01-07/1629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada foydalanishdagi to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar ko'p operatsiyali valli mashinaga yangi bosim berish mexanizmini qo'llash natijasida siqish samaradorligi mavjud konstruksiyaga nisbatan o'rtacha 11,7 % oshadi, energiya sarfi 14,4 % ga kamayadi hamda ho'l teri xomashyo mahsulotini siqish jarayonida teri xom ashyo mahsulotining qoldiq namligi 55 – 60 % ni tashkil etishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan hamda Intellektual mulk markazining ixtiroga 1 ta patenti olingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 119 betni tashkil etdi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda obyekti va predmeti tavsiflangan. Respublikaning fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiya ishining **"Soha va mavzuga oid ilmiy ishlanmalar va adabiyotlar tahlili"** deb nomlangan birinchi bobida teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi valli mashinalar yaratish borasida bajarilgan tadqiqotlar tahlili, ishchi organlarga bosim beruvchi mexanizmlar tahlili, ko'pchilik va mo'ynachilik mashinalari uzatish mexanizmlarining tahlili, teri xom ashyosiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali valli mashinalar tahlil qilingan va o'rganilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **"Ishlab chiqilgan bosim beruvchi mexanizmga ta'sir etuvchi kuchlarni nazariy tadqiq qilish"** deb nomlangan ikkinchi bobida teri xomashyosiga mexanik ishlov berish uchun mashinaning prinsipial sxemalarini ishlab chiqish, ko'p operatsiyali valli mashinaning bosim beruvchi mexanizmidagi tayanch reaksiya kuchlarini aniqlash, teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi

ko'p operatsiyali mashina bosim beruvchi mexanizmining strukturaviy tahlili ko'rib chiqilgan.

Teriga mexanik ishlov beruvchi mashina staninaga o'rnatilgan ishchi val, oldinga va orqaga harakatlanish imkoniyatiga ega qilib bajarilgan richag bilan birlashtirilgan siquvchi val, staninaga o'rnatilgan tishli g'ildirakdan iborat bo'lgan bosim mexanizmi, tebranish imkoniyatiga ega qilib bajarilgan ikki yelkali richag, richagning bir uchiga o'rnatilgan, parazit tishli g'ildirak staninaga o'rnatilganligi bilan farq qiladigan tishli sektor, o'zaro sharnirli bog'langan richag, tortuvchi kuch (tyaga) va asosiy tishli g'ildirakdan iborat.

Teriga mexanik ishlov beruvchi mashina quyidagicha ishlaydi.

Teri boshlang'ich holatda turgan, ya'ni aylanuvchi ishchi valdan chetlashtirilgan holatdagi siquvchi valning harakatlanuvchi yuzasiga joylashtiriladi. Pedalni bosish orqali bosim mexanizmi tishli sektor, parazit va asosiy tishli g'ildiraklar, tortuvchi richaglar, siquvchi val yordamida ishlov berish zonasiga o'tadi. Ishlov berish zonasida, ya'ni kontakt zonasida ishchi va siquvchi vallar orasida bosim hosil bo'ladi va teriga ishlov beriladi. Ishlov berish yakunlanganidan so'ng pedal qo'yib yuboriladi va prujina ta'siri ostida siquvchi val dastlabki holatga qaytadi (1- rasm).



- 1 – teri xomashyosi; 2 – ishchi val; 3 – siquvchi val; 4 – ikki yelkali richag;  
5 – tishli sektor richagi; 6 – tishli sektor; 7 – pedal; 8 – asosiy tishli g'ildirak;  
9 – parazit tishli g'ildirak; 10 – richag (tortqi); 11 – tayanchlar.

**1-rasm. Teri xomashyosiga mexanik ishlov berish mashinasining bosim mexanizmi**

Pedal bosilganida  $Q$  kuch tishli sektor ikki yelkali richag va parazit tishli g'ildirak yordamida asosiy tishli g'ildirakka uzatiladi. Bunda  $O$  nuqtada hosil bo'lgan  $M_O$  moment  $O_1$  nuqtadagi momentga teng bo'ladi (bosim mexanizmi

bo'g'inlaridagi ishqalanish kuchini hisobga olinmagan holda) (1-rasm). Pedal bosilishi bilan ishchi va siquvchi vallar o'rtasidagi kontakt zonasida bosim hosil bo'lgan hol uchun kuchlar va aylanishlar yo'nalishi strelka bilan ko'rsatilgan.

Pedal  $Q$  kuch bilan bosilganida  $O$  nuqtaga nisbatan  $M_O$  moment hosil bo'ladi:

$$M_O = Q \cdot R_1, \quad (1)$$

bu moment tishli sektor ikki yelkali richag va parazit tishli g'ildirak orqali asosiy tishli g'ildirakka uzatiladi, va radiusi  $R_3$  bo'lgan asosiy tishli g'ildirakka  $Q_1$  kuch bilan ta'sir qiladi (bosim mexanizmi bo'g'inlaridagi ishqalanish kuchini hisobga olinmagan holda):

$$\frac{M_O}{R_2} = Q_1, \quad (2)$$

bunda  $R_2$  – tishli sektor radiusi,  $Q_1$  – tishli sektorning parazit g'ildirakka ta'sir kuchi. Bundan.

$$M_O = Q_1 \cdot R_2, \quad (3)$$

pedal bosilganda  $O$  nuqtaga nisbatan mamentlar o'zaro teng bo'ladi va u orqali  $Q_1$  ni ifodalaymiz:

$$Q_1 = \frac{R_1}{R_2} Q, \quad (4)$$

$Q_1$  kuchimiz radiusi  $R_3$  bo'lgan asosiy tishli g'ildirakning  $O_1$  nuqtasiga  $M_{O_1}$  moment beradi. Moment  $M_{O_1}$  ta'sirida, radiusi  $R_3$  bo'lgan asosiy tishli g'ildirakda hosil bo'ladigan  $Q_2$  kuch o'zgaruvchan bo'ladi.

$O_1$  nuqtaga nisbatan  $Q_1$  kuchning  $M_{O_1}$  momenti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$M_{O_1} = Q_1 \cdot R_3, \quad (5)$$

bunda  $R_3$  – asosiy tishli g'ildirakning radiusi.

$$Q_2 \cdot R_3 \cdot \cos \alpha = M_{O_1}, \quad (6)$$


bunda  $\alpha$  –  $O_1$  nuqtadagi asosiy tishli g'ildirakning burilish burchagi. (5) dagi  $M_{O_1}$  momentning ifodasini (6) qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$Q_2 \cos \alpha = Q_1. \quad (7)$$

Natijada  $Q_1$ , kuchning ifodasini (7) qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$Q_2 = \frac{R_1}{R_2} Q \frac{1}{\cos \alpha} = \frac{R_1}{R_2} Q \cdot \sec \alpha. \quad (8)$$

Pedal bosilganida mexanizm konstruksiyasidan kelib chiqib, bosim mexanizmi zvenolari, ishchi va siquvchi vallarning kontakt zonasidagi bosim kuchi asosiy tishli g'ildirak burilish burchagini sekansoida bo'yicha ortib boruvchi  $Q_2$  kuchning o'zgarishi quyidagicha bo'ladi (2- rasm).



**2-rasm. Bosim kuchining o'zgarish grafigi**

Ko'p operatsiyali mashinaning siqish texnologik jarayoni uchun pedalning maksimal ko'tarilish masofasini aniqlaymiz. Bunda pedal  $L_1=h$  yoysimon harakat qiladi va yoy uzunligini quyidagicha topamiz.  $R_3$  – asosiy tishli g'ildirakning radiusi,  $\alpha$  – asosiy tishli g'ildirakning burilish burchagi.

$$L_1 = \frac{\beta \cdot 2\pi R_1}{360}, \quad (9)$$

xuddi shunday.

$$L_3 = \frac{\alpha}{360} \cdot 2\pi R_3, \quad (10)$$


asosiy tishli g'ildirak va pedal sektorining siljish masofasi bir xil qiymatda bo'lganligi sababli  $L_3=L_2$  o'rinli bo'ladi.

Pedalning burilish burchagini aniqlab olamiz:

$$\beta = \frac{360 \cdot L_3}{2\pi R_2}. \quad (11)$$

Mumkin bo'lgan ko'chishlar prinsipiga ko'ra  $L_1$  ning ishchi va bosim beruvchi vallar orasidagi masofa  $l$  ga bog'lanish tenglamasi olindi va quydagi grafik hosil qilindi. (3-rasm).

Bunda  $L_3=157,08\text{mm}$ ,  $L_1=240,73\text{mm}$   $\alpha=70^\circ \div 90^\circ$  bo'lganda turli richag uzunliklari  $R_3=100\text{mm}$ ,  $R_2=400\text{mm}$ ,  $R_1=600\text{mm}$  bo'lganda  $\beta$  burchakka bog'liq o'zgarish grafigi keltirilgan



**3-rasm. Ishchi va bosim beruvchi vallar orasidagi masofa  $l$  ning  $\beta$  burchakka bog'liq o'zgarishining grafigi**


Richag siljish masofasini aniqlash uchun mexanizmning o'lchamlari  $R_1=600$  mm,  $R_2=400$  mm,  $R_3=100$  mm,  $L_3=240,73$ mm va  $\beta=22,5^\circ$  bo'lganda  $L_r$  quyidagicha aniqlanadi:

$$L_r = R_3 - R_3 \cos \alpha . \quad (12)$$

4-rasmda ishchi va bosim beruvchi vallar orasidagi bosim kuchi  $Q_{ish}$  ning pedal  $Q=3$  kg, 4 kg va 5 kg kuch bilan bosilgandagi holatining asosiy tishli g'ildirak burilish burchagi  $\sec(\alpha)$  ga nisbatan o'zgarishi grafigi keltirilgan.

$$Q_{ish} = \frac{R_5}{R_4} Q_2 \cdot \sec \alpha . \quad (13)$$

Bunda  $R_5=R_4$  bo'lganda bosim berish barabanida xosil bo'ladigan  $Q_{ish}$  kuchi  $Q_2$  kuchga teng bo'ladi. Richaklar kordinata o'qlari bo'ylab yo'nalgan holda esa bu richaglar  $\gamma$  burchak orqali ifodalaniladi.



4-rasm. Ishchi va bosim beruvchi vallar orasidagi bosim kuchi  $Q_{ish}$  ning pedal  $Q=3$ kg, 4 kg va 5 kg kuch bilan bosilgandagi holatining asosiy tishli g'ildirak burilish burchagi  $\sec(\alpha)$  ga nisbatan o'zgarishi grafigi ( $L_1=30$  sm)

Grafikdan ko'rinadiki bosim beruvchi va ishchi val orasidagi  $Q_{ish}$  kuch asosiy tish g'ildirakning burilish burchagi  $17\pi/36$  dan  $\pi/2$  gacha o'zgarganda siqish texnologik jarayoni uchun yetarli bo'lgan kattalikka erishar ekan.

Dissertasiyaning “Tavsiya etiladigan bosim beruvchi mexanizmning ko'p operatsiyali mashina uchun tajriba nusxasini yaratishning texnik topshiriqlarini ishlab chiqish va tayyorlash” deb nomlangan uchinchi bobida teri xomashyosiga ta'sir qiluvchi mexanizmning kinematik va dinamik parametrlarni tadqiqi, teri xom ashyo mahsulotiga mexanik ishlov beruvchi texnologik mashinani takomillashtirish ishlari olib borilgan.

Ushbu bosim beruvchi mexanizm (5-rasm)  $R_1$  richag (pedal)  $Q$  kuch bilan bosilganda, ishchi valga qanday  $Q_{ish}$  kuch bilan bosim berishini aniqlash masalasi ko'rilgan.

$$\begin{aligned} x_E &= \frac{-m_{R_4} \cdot x_L - m_{R_5} \cdot x_E - m_H \cdot x_H}{M}, \\ y_E &= \frac{m_{R_5} \cdot y_E + m_H \cdot y_H + m_{R_5} \cdot y_L}{M}. \end{aligned} \quad (14)$$
$$T - T_0 = \sum A_i^e, \quad (15)$$
$$T = T_1 + T_2 + T_3 = \frac{m_A \cdot V_A^2}{6} + \frac{13}{24} m_c \cdot V_A^2 \cdot \cos^2 \alpha_1 + \frac{m}{24} \cdot 0,0036 \cdot \cos^2 \alpha_1 \cdot V_A^2, \quad (16)$$

$$A = A_1 + A_2 + A_3, \quad (18)$$

$$A = Q_A \cos \alpha_1 \cdot h + P_1 \cdot \frac{h}{2} + m_c \cdot tg \alpha + Mg \cdot (O_3 O_4 - y_E). \quad (19)$$

(16) tenglamaga mexanizmning richaglar o'lchamlari, tishli g'ildiraklarning aylanish burchaklarning qiymatni qo'yib hisoblandi:

$$\left( \frac{m_A}{6} + \frac{13}{24} m_c \cdot \cos^2 \alpha_1 + \frac{m}{24} \cdot 0,0036 \cdot \cos^2 \alpha_1 \right) \cdot V_A^2 =$$

$$= Q_A \cos \alpha_1 \cdot h + P_1 \cdot \frac{h}{2} + m_c \cdot tg \alpha + Mg \cdot (O_3 O_4 - y_E), \quad (20)$$


sistema musbat ish bajarganligi sababli (17) tenglamaning o'ng qismi 0 dan katta bo'lishi kerak. Bunga ko'ra:

$$Q_A \cos \alpha_1 \cdot h + P_1 \cdot \frac{h}{2} + m_c \cdot tg \alpha + Mg \cdot (O_3 O_4 - y_E) > 0, \quad (21)$$

Bundan.

$$Q_A = \frac{-\cos \alpha_1 \cdot h - P_1 \cdot \frac{h}{2} - m_c \cdot tg \alpha + Mg \cdot (y_E - O_3 O_4)}{\cos \alpha_1 \cdot h}. \quad (22)$$

(21) tenglamadan pedalga operator tomonidan qo'yilishi kerak bo'lgan kuchning minimal qiymatini, pedalning maksimal ko'tarilish balandligini hamda pedal o'rnatilgan  $R_I$  richagning gorizont bilan hosil qilgan burchagini aniqlash mumkin. Ushbu ko'p operatsiyali mashinada (5-rasm)  $R_I$  pedal qandaydir  $Q_A$  kuch bilan vertikal bosilganda,  $R_I$  richag  $CD$  richag yordamida  $R_4$  richagni harakatga keltiradi. O'z navbatida harakatlanayotgan  $H$  val ishchi valga  $Q_{ish}$  kuch bilan tasir qiladi. Ushbu mashina harakatining stabilligini taminlashimiz uchun pedalning  $A$  nuqtasiga beriladigan  $Q_A$  kuch inson oyog'i bilan hosil qilinishi mumkin bo'lgan darajada kichik va  $A$  nuqtaning yerdan maksimal ko'tarilishi ham odam qiynalmasdan bosa oladigan darajada kichik bo'lishi kerak. Buning uchun ishchi valga ta'sir qiluvchi bosim kuchini,  $R_I$  richagning gorizont o'q bilan hosil qilgan burchagi o'zgarish qonuniyatlarini o'rganishimiz yetarli.



**6-rasm. Ishchi hududda hosil bo'luvchi bosim kuchi  $Q_{ish}$  ning pedalga operator tomonidan berilishi lozim bo'lgan ta'sir kuchi  $Q_A$  ga hamda pedalning burilish burchagi  $\alpha$  ga bog'liq o'zgarishi**

Mashinaning dinamik tahlilini qilishda mashina nuqtalarining tezliklarini, shu nuqtaga ta'sir qilayotgan kuchlarni va richaglarning uzunliklarini bilish ahamiyatlidir.

Ishchi hududda hosil bo'luvchi bosim kuchi  $Q_{ish}$  ning pedalga operator tomonidan berilishi lozim bo'lgan ta'sir kuchi  $Q_A$  ga bog'liq holatini topish uchun, harakat miqdorining o'zgarishi haqidagi teoremiyaga qo'ysak quydagicha yozish mumkin:

$$\begin{cases} M V_H = Q_4 \cdot t, \\ M_1 V_A = Q_A \cdot t. \end{cases} \quad (23)$$

bu yerda  $M$  – val massasi,  $M_I$  – pedalning massasi.  $Q_{ish}$  – ishchi qismda hosil bo'luvchi kuch.  $t$ - vaqt.



Ishchi organga ta'sir qiluvchi kuch quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_{ish} = \frac{M}{M_1} \cdot \frac{R_5}{R_4} \cdot Q_2 \sec \alpha, \quad (24)$$

bunda  $\alpha$  – OA pedalning gorizont bilan xosil qilgan burchagi,  $M$  – val massasi,  $M_1$  – pedalning massasi. Texnologik mashinaning tajribaviy nusxasidan olingan  $M=17,1$  kg,  $M_1=2$  kg,  $R_5=80$  cm,  $R_4=110$  cm qiymatlarni (23) tenglamaga qo'yganimizda ishchi hududda hosil bo'luvchi bosim kuchi  $Q_{ish}$  ning pedalning gorizontdan maksimal og'ish burchagi  $\alpha$  hamda pedalga operator tomonidan berilishi lozim bo'lgan ta'sir kuchi  $Q_A$  ga bog'liq tenglamasi hosil bo'ladi (24). Bu tenglama orqali quyidagi grafikni hosil qilishimiz mumkin (6-rasm). Bunda  $\alpha$  ning qiymati  $89\pi/180$ ,  $17\pi/36$  va  $4\pi/9$  bo'lgandagi va  $Q_A$  ning qiymati 0-80 N oraliqda o'zgariganda  $Q_{ish}$  ning o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Ishchi organdagi bosim kuchining miqdori operator tomonidan pedalga beriladigan kuchga to'g'ri proporsional, pedalning gorizontdan maksimal og'ish burchagi  $\alpha$  ga teskari proporsional ekan. Ya'ni ishlov berish uchun yetarli miqdordagi kuchni olishimiz uchun burchakni kichik tanlab olishimiz zarur ekan.

Yuqoridagi miqdordagi kuch hosil qilinishi uchun operator texnologik mashinaning pedaliga qanday kattalikdagi kuch bilan ta'sir qilishi kerakligini aniqlaylik. Buning uchun (23) tenglamani  $Q_A$  kuchga nisbatan quyidagicha yozamiz:


$$Q_A = \frac{Q_4}{\cos \alpha} \frac{M_1}{M} \cdot \frac{R_4}{R_5}. \quad (25)$$

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishchi organdagi bosim kuchining miqdori 8 kN bo'lishi uchun, tishli g'ildirakning garizontdan og'ish burchagi  $\alpha$  o'zgarish oralig'i ( $4\pi/9$ ,  $89\pi/180$ ), operator tomonidan pedalga berilishi kerak bo'lgan kuchning miqdori (46,7-80) N bo'lishi kerak ekan.

Ko'p operatsiyali texnologik mashinaning richagli konstruksiyasi har xil siqish kuchini ta'minlaydi, ammo teriga ishlov berishning turli texnologik jarayonlari uchun talab etiladigan bosim kuchini ta'minlay olmaydi.

Dissertasiyaning “**Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish rejasi, metodikasi va tahlili hamda iqtisodiy samaradorlik**” deb nomlangan to'rtinchi bobida yarim tayyor teri xomashyosini ko'p operatsiyali valli dastgoh stendida siqish texnologik jarayonini tajribada o'rganish, taklif etilayotgan teri xomashyosi maxsulotlariga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali valli takomillashtirilgan mashinaning sinov natijalari, mazkur takomillashtirilgan mashinani joriy etishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlikni hisoblari keltirilgan. 7-rasmda ko'p operatsiyali valli mashina shvellerlardan payvandlangan 19 staninadan iborat. Staninaning yuqorigi polkasiga qo'zg'almas ishchi val 2 mahkamlangan. Staninaga ikki yelkali richaglar 12 va 13 o'rnatilgan bo'lib, ularning qisqa yelkalarida siquvchi vallar 3 o'rnatilgan, richagning uzun yelkasi esa tyagalar 8 va 9 va shesternyalar 14 va 15 vositasida pedal 7 bilan bog'langan. Staninaga mahkamlangan siquvchi val yuqorisida polka 4 o'rnatilgan yo'naltiruvchi val 2 prujina bilan regulirovka qilinadigan siquvchi 17 valga siqilgan siqish 3 valining o'ng tomonida uzatib beruvchi stol mahkamlangan. Uzatib beruvchi 4 stolning konstruksiyasi terini siqish barabanining turli diametrlarida ( $\varnothing 190$ ,  $\varnothing 125$ ,  $\varnothing 250$ ) uzatish imkonini beradi. Teriga ishlov berish quyidagicha amalga oshiriladi.





1 – ishchi val; 2,3 – siquvchi val; 4 – polka; 5,6 – bokovina;  
7 – pedal; 8,9 – tortuvchi richaglar; 10 – shkiv; 11 – zanjir;  
12,13 – richag; 14 – tishli sektor; 15 – parazit tishli g'ildirak;  
16 – rama; 17 – poshipnik korpusi;  
18 – elektrodvigatel; 19 – rama

#### 7-rasm ko'p operatsiyali valli mashinaning 3D korinishi

Shesternya soat strelkasi yo'nalishida aylanib, ikki yelkali richaglar 12 va 13 ni burib, tyagalar 8 va 9 ni pastga tortadi. Ikki yelkali richak 12 va 13 ka birlashtirilgan valik 3 terini ishchi val 1 ga siqadi. Pedal qo'yib yuborilganda 7 prujinalar mashina mexanizmlarini dastlabki holatiga qaytaradi.

Teriga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning tishli-richagli siqish mexanizmi ko'p operatsiyali valli mashina konstruksiyasi turli diametrli ( $\varnothing 250/\varnothing 190/\varnothing 125$ ) barabanlar bilan ishlash imkonini beradi.

Tajribalar o'rta vazndagi yirik shoxli qora mol terisidan olingan teri xomashyosi uchun o'tkazildi. Tajriba davomida suyuqlik bilan ishlov berilgan, qalinligi 0,004 m bo'lgan nam teri xomashyomahsuloti namunalari bosim beruvchi ishchi valga operator tomonidan uzatiladi. Siqishdan oldin va keyin namunalar diskretligi 0,01 g bo'lgan MVP-600 H laboratoriya tarozisida tortildi (ISO-9001).

Yarim tayyor teri xom ashyomahsulotini ko'p operatsiyali rolikli dastgohning stendida siqish texnologik jarayonini amalga oshirishda quydagi parametrlarni ta'minlash tavsiya etiladi: Ishchi va siquvchi vallarning diametiri  $D = 250$  mm ikki yelkali richaglarning uzunliklari  $R_4 = 110$  mm,  $R_5 = 80$  mm, pedalning uzunligi  $R_1 = 600$  mm, oraliq tishli g'ildiraklarning diametrlari  $D_1 = 385$  mm,  $D_2 = 180$  mm,  $D_3 = 140$  mm ishchi vallarning chiziqli tezligi  $v = 0,17$  m / s, ishchi vallar orasidagi bosim kuchi  $Q_{ish} = 32$  kN/m, vertikal bilan hosil qilgan burchagi 1,55rad va operator tomonidan pedalga bosish kuchi 8 kg bo'lishi kerak. Bunda hamda ho'l teri xom ashyo mahsulotini siqish jarayonida teri xom ashyo mahsulotining qoldiq namligi 55 – 60 % ni tashkil etishiga erishiladi.

Tajribalar o'rta vazndagi yirik shoxli qoramol terisidan olingan teri xom ashyosi uchun o'tkaziladi. (8, 9-rasmlar)

Uzatib beruvchi stol 4 ga o'rnatilgan teri operator tomonidan oldinga suriladi. Yo'naltiruvchi valik 2 uni ishchi 1 va siquvchi 3 valiklar orasidagi ishlov berish zonasiga yo'naltiradi. Operator pedal 7 ni bosganda pedal bilan bir valda o'tirgan shesternya 14 aylanishlarni parazit shesternya 15 ga uzatadi, u esa o'z navbatida shesternya 16 ga uzatadi.



**8-rasm. Ko‘p operatsiyalili valli texnologik mashinaning stendi (UzR FA MINSMI)**



**9-rasm. Siqishdan keyin yarim tayyor teri xomashyo mahsulotining vazni va qalinligini o‘lchash**

K.Kano dizayn matritsasi yordamida D-optimal rejalashtirish usulidan foydalanib eksperiment tadqiqot natijalarini olingan va eksperiment rejasi tuzilgan. Omillar formulaga muvofiq quyidagicha teng:

$$x_i = \frac{c_i - c_{i0}}{t_0}, \quad (25)$$

bu yerda  $x_i$  – omillar qiymatlarini kodlash;  $c_i, c_{i0}$  – omilning joriy va nol darajadagi omilning natural qiymatlari;  $t_0$  – omil o‘zgarishi intervalining natural qiymati.

Approksimatsiyalovchi polinom funksiyalar quyidagicha aniqlanadi:

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^k b_i x_i + \sum_{i,j=1}^k b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^k b_{ii} x_i^2, \quad (26)$$

bu yerda  $y$  – kodlangan shaklda chiqarilgan yo‘nilgan ko‘n yarim mahsuloti sifati;  $b_0, b_i, b_{ij}, b_{ii}$  – regressiya koeffitsiyentlari. Tajriba omillarining o‘zgarishi qiymatlari va intervallari 1 - jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval

**Tajriba omillarining o‘zgarishi darajalari va intervallari**

№	Omil nomi	O‘lchov birligi	Belgisi	Omil qiymatlari			Variatsiya darajasi
				-1	0	+1	
1	Ishchi vallar bosimi	kN/m	$x_1$	16	24	32	8
2	Ishchi organing chiziqli tezligi	m/s	$x_2$	0,17	0,25	0,34	0,085
3	Bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan burchagi	rad	$x_3$	1,2	1,375	1,55	0,175

**Tajribalarni rejalashtirish matritsasi**

№	$x_1$	$x_2$	$x_3$	$y_1, gr$		$y_2, gr$		$y_3, gr$	
				$y_{b1}$	$y_{o1}$	$y_{b2}$	$y_{o2}$	$y_{b3}$	$y_{o3}$
1	+	+	+	82,2	62,5	82,7	62,7	92,8	69,7
2	-	+	+	82,5	67,6	83,5	66,5	92,4	72,8
3	+	-	+	90,1	66,6	83,8	60,6	101,3	75,4
4	-	-	+	83,1	64,1	81,6	62,3	91,5	69,7
5	+	+	-	78,4	60,5	76,3	56,5	83,7	61,3
6	-	+	-	80,9	60,6	78,1	58,5	89,7	68,1
7	+	-	-	85,3	60,1	79,7	55,5	91,4	64,5
8	-	-	-	84,1	69,6	81,8	65,5	90,4	72,5

2-jadvaldagi qiymatlardan foydalanib, tajribalarni rejalashtirish matritsasi tuzib olindi. Ya'ni, teri xomashyo mahsulotidan siqib chiqarilgan namlikning matematik hisoblari (foiz ulushida) 3-jadvalda keltirilgan.

To'liq omilli tajribada regressiya koeffitsiyentlari quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$b_0 = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^N y_j; \quad b_j = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^N X_{ji} y_j; \quad b_{im} = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^N X_{ji} X_{jm} y_j. \quad (27)$$

Yuqoridagi natijalarga ko'ra regressiya koeffitsiyentlari quyidagiga teng bo'ladi:

$b_0 = 24,1$ ;  $b_1 = 5,1$ ;  $b_2 = 0,2$ ;  $b_3 = 0,05$ ;  $b_{12} = 24,1$ ;  $b_{13} = -1,06$ ;  $b_{23} = -0,04$ ;

$b_{123} = -0,89$ ;

**Tajribalarni rejalashtirish matritsasi**

№	Faktorlar							Tajriba natijalri			O'rta natija
	$x_1$	$x_2$	$x_3$	$x_{12}$	$x_{13}$	$x_{23}$	$x_{123}$	$y_1$	$y_2$	$y_3$	
1	+	+	+	+	+	+	+	23,9	24,2	24,9	24,3
2	-	+	+	-	-	+	-	18,1	20,4	21,2	19,9
3	+	-	+	-	+	-	-	26,1	27,7	25,6	26,4
4	-	-	+	+	-	-	+	22,9	23,6	23,8	23,4
5	+	+	-	+	-	-	-	22,8	25,9	26,8	25,2
6	-	+	-	-	+	-	+	25,1	25,1	24,1	24,8
7	+	-	-	-	-	+	+	29,5	30,4	29,4	29,8
8	-	-	-	+	+	+	-	17,2	19,9	19,8	18,9

Tajriba natijalarining aniqligi va moyilligi ko'p jihatdan butun kirish va chiqish parametrlarining nazorati va ularning doimiyligiga bog'liq. Shuning uchun

har bir tajribani siqish mashinasining kiruvchi va chiquvchi parametrlarini ko'p martali nazorati yordam beradi.

Tajribalar bir tekis takrorlanganda ( $n=3$ ) bir qator dispersiyalarning bir qatorliligi maksimal dispersiyaning barcha dispersiyalar yig'indisiga nisbatini ifodalovchi Koxren mezonni bo'yicha tekshiriladi:

$$G_p = \frac{S_{\max}^2}{S_1^2 + S_2^2 + S_3^2 + \dots + S_N^2} = S_{\max}^2 / \sum_{j=1}^N S_j^2, \quad (28)$$


$$G_p = \frac{2,87}{7,72} = 0,3718. \quad (29)$$

Agar  $G_h$  – mezonning hisoblangan qiymati  $G_j$  – mezonning jadval qiymatidan oshmasa, ya'ni  $G_h \leq G_j$  bo'lsa, dispersiyalar bir jinsli bo'ladi.  $n-1=3-1=2$  bo'lganda  $G_j$  – mezonning qiymati 5% lik xatolik darajasida  $n=8$  uchun 0,5157 ga teng. Demak,  $G_h < G_j$  bo'lgani uchun dispersiyalar bir jinsli bo'ladi.


Ishonchlilik oralig'i qiymatini hisobga olgan holda  $\Delta b = \pm 0,425$  regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$y = 24,1 + 5,1x_1 + 4,23x_1x_2 - 1,06x_1x_3 - 0,89x_1x_2x_3. \quad (30)$$

Olingan regressiya tenglamasi (27) dan foydalanib, bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan burchagi  $\alpha$  ning siqib chiqarilgan suyuqlik  $\Delta W$  miqdoriga bog'liqlik grafiklari  $P=32$  kN/m va ishchi organning aylanish  $V$  tezligining turli qiymatlari (10-rasm) uchun qurilgan va ishchi organ chiziqli  $V$  tezligining siqib chiqarilgan suyuqlik  $\Delta W$  miqdoriga bog'liqlik grafiklari  $P=32$  kN/m va bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan  $\alpha$  burchagining turli qiymatlari (11-rasm) uchun qurilgan. Tajriba natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, siquvchi val juftliklari orasidan teri xomashyo mahsuloti harakatlanganda, teri xom ashyo mahsulotining tezligini kamaytirib, siquvchi vallar bosim kuchini oshirilib borilsa, teri xomashyo namligi samaradorligini oshirish mumkin.



**10-rasm. Siqib chiqarilgan suyuqlik  $\Delta W$  miqdorining bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan  $\alpha$  burchagiga bog'liqligi**



**11-rasm. Ishchi organ chiziqli tezligining  $V$  siqib chiqarilgan suyuqlik  $\Delta W$  miqdoriga bog'liqligi**

11 va 12-rasmlarda keltirilgan grafiklarga asoslanib, tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan burchagi  $\alpha=1,55$  rad, bosim kuchi  $P=32$  kN/m va ishchi organ aylanish tezligi  $V=0,17$  m/s bo'lganda teri xomashyosidan siqib chiqarilgan suyuqlik miqdori ( $\Delta W=38$  %) eng yuqori natijani ko'rsatdi. Bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan

burchagi  $\alpha=1,55$  rad, bosim kuchi  $P=32$  kN/m va ishchi organ chiziqli tezligi  $V=0,34$  m/s bo'lganda teri xomashyosidan siqib chiqarilgan suyuqlik miqdori ( $\Delta W=31$  %) eng kam natijani ko'rsatdi.

Takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizm qo'lanilgan siqish mashinasidan foydalanishdagi iqtisodiy samara quydagicha aniqlandi:

$$E = N_e \cdot a - N_y + \frac{I_e - I_y}{\frac{1}{T_y} + S_n} + \Delta K_n = 180000000 \cdot \frac{2}{3} - 120000000 + \\ + \frac{(38782,14 - 38782,14) \cdot 28}{\frac{1}{5} + 0,15} + (9930478,74 - 5203401,869) \cdot 28 = \\ 4727076,871 \cdot 28 = 132.358.152,4 \text{UZS}.$$

Bunda  $N_e$ ,  $N_y$  – tanlangan va tavsiya etilgan mashinaning narxlar;  $a$  – ekvivalentlik koeffisienti;  $I_e$ ,  $I_y$  – takomillashtirilgan texnologiya birligi uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi uchun amortizasiya ajratmalari bundan mustasno, asosiy va ilg'or texnologiyani qo'llash uchun yillik harajatlar;  $T_y$  – takomillashtirilgan texnologiyaning xizmat qilish muddati;  $S_n$  – normativ koeffitsient;  $\Delta K_n$  – asosiy va ilg'or valli mashinalardan foydalanishda kapital qo'yilmalar (uskunalar narxidan tashqari) o'rtasidagi farq.

## XULOSA

“Teri xomashyosiga mexanik ishlov beruvchi ko'p operatsiyali mashinaning bosim beruvchi mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Teri xomashyosiga mexanik ishlov berish jarayonlarini tahlil qilish natijasida, mavjud ko'p operatsiyali valli mashinalarning bosim beruvchi mexanizmlari etarli bosim bera olmasligi aniqlandi. Shu sababli, mexanizmning konstruktiv tuzilishini takomillashtirish hamda bosim berish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish zarurati asoslandi.

2. Teri xomashyosiga mexanik ishlov berishga mo'ljallangan takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizmga ega ko'p operatsiyali valli mashinaning konstruksiyasi ishlab chiqildi, uning tajribaviy qurilmasi yaratildi va tajribaviy sinovlardan o'tkazildi.

3. Tajriba tadqiqotlari natijasida mashina bosim beruvchi mexanizmning vertikal bilan hosil qilgan burchagi  $\alpha=1,55$  rad, siquvchi bosim kuchi  $P=32$  kN/m va mahsulotning maksimal o'tish tezligi  $V=0,17$  m/s bo'lgan rejim optimal natija berishi aniqlangan bo'lib, ushbu sharoitda siqib chiqarilgan namlik miqdori eng yuqori darajaga erishadi. Yuqoridagi parametrlarning ortishi teri xom ashyosidan ajralib chiqayotgan suyuqlik miqdorining kamayishiga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

4. Taklif etilgan yangi konstruksiyadagi bosim beruvchi mexanizm teri xom ashyosidan ortiqcha namlikni maksimal darajada ajratishga imkon yaratadi. Bu

texnologik operatsiya natijasida nam teri xomashyosining keyingi ishlov jarayonlarida sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

5. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra, yarim tayyor teri mahsulotini siqish jarayonining eng maqbul texnologik rejimi quyidagicha belgilandi: ishchi val diametri  $D=250$  mm, mahsulotning harakat tezligi  $V=0,17$  m/s, siquvchi bosim kuchi  $P=32$  kN. Ushbu optimal parametrlar ta'minlanganda namlikni ajratish samaradorligi  $\Delta W=38$  % ni tashkil etdi va mahsulotning qoldiq namligi 55-60 % oralig'ida bo'lishi ta'minlandi.

6. Taklif qilinayotgan ko'p operatsiyali valli mashina mavjud analoglarga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega: mahsulot sifati oshiriladi; energiya sarfi kamayadi; ishchi organlarning xizmat muddati uzayadi; namlik me'yoriy darajada bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun texnologik asos shakllanadi.

7. Yaratilgan yangi konstruktsiya ixchamligi bois ishlab chiqarish maydonidan samarali foydalanish imkonini beradi. Takomillashtirilgan bosim beruvchi mexanizmga ega ko'p operatsiyali valli mashinaning joriy etilishi natijasida yillik iqtisodiy samaradorlik 132 358 152,40 UZSni tashkil etishi hisoblab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.T.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ИНСТИТУТ МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ  
ИМЕНИ М.Т.УРАЗБАЕВА**

**АЧИЛОВ ГОФУРЖОН КУРБОНБОЙ УГЛИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ДАВЛЕНИЯ  
МНОГООПЕРАЦИОННОЙ МАШИНЫ ДЛЯ МЕХАНИЧЕСКОЙ  
ОБРАБОТКИ КОЖЕВЕННОГО ПОЛУФАБРИКАТА**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и  
робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2026**



**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.2.PhD/T2654.**

Диссертация выполнена в Институте механики и сейсмостойкости сооружений имени М.Т.Уразбаева Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ttyssi.uz](http://www.ttyssi.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Бахадиров Гайрат Атаханович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Мирзаев Нодир Боходирович**  
доктор технических наук, профессор

**Ибрагимов Фарход Хайруллоевич**  
доктор технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Наманганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится 19 января 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-222 аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за № 262). Адрес: 100100, г.Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 5 января 2026 года  
(реестр протокола рассылки № 263 от 5 января 2026 года).

**Х.Х.Камилова**  
Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.3.Маматов**  
Ученый секретар Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**  
Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

